

ISSN 2181-922X

O'ZBEKISTON

TIL VA MADANIYAT

AMALIY FILOLOGIYA MASALALARI

2024 Vol. 2 (5)

www.aphil.tsuull.uz

Bosh muharrir:

Saodat Muhamedova

Mas'ul kotib:

Elyor Xonnazarov

Tahrir kengashi

Aynur O'zjan (Turkiya), Baydemir Husayn (Turkiya), Alfiya Yusupova (Rossiya), Luiza Samsitova (Rossiya), Almaz Ulvi (Ozarbay-jon), Merveri Ismailova (Ozarbayjon), Abdulhay Sobirov, Shoiri Isayeva, Nargiza Musulmonova, Munira Shodmonova, Oqila Turaqulova, Iroda Azimova, Yekaterina Shirinova, Dilrabo Elova, Xurshida Kadirova, Jumana-zar O'rozov, Xasan Akramov, Ra'no Azizova, Azimjon Davronov.

Jurnal haqida ma'lumot

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi - Oliy attestatsiya komissiyasi ilmiy nashrlar ro'yxatidagi "O'zbekiston: til va madaniyat" akademik jurnalining ilovasi hisoblanib, unda professor-o'qituvchilar, doktorantlar, stajor-tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlarning amaliy tilshunoslik, amaliy adabiyotshunoslik, kompyuter lingvistikasi, o'zbek tilini davlat tili va xorijiy til sifatida o'qitish, nashirlik ishi kabi sohalarga oid tadqiqotlari nashr qilinadi.

Jurnal ilovasi bir yilda ikki marta chop etiladi.

O'zbek, rus va ingliz tillaridagi, shuningdek, boshqa turkiy tillarda yozilgan maqolalar qabul qilinadi.

Jurnalda kitoblarga yozilgan taqrizlar, adabiyotlar sharhi, konferensiyalar hisobotlari va tadqiqot loyihalari natijalari ham e'lon qilinadi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.

"O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari" seriyasi 2022-yildan chiqa boshlagan.

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti.

O'zbekiston, Toshkent, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos Hojib ko'chasi, 103.

Email: aphil@tsuull.uz

Website: <http://www.aphil.tsuull.uz>

MUNDARIJA

AMALIY FILOLOGIYA

Aynur Cəfərova

Qədim “Manas” dastanında işlənmiş vokal və konsonantlar..... 5

Екатерина Ширинова

Конфликтное общение: факторы, причины, некоторые пути
преодоления 13

Jumanazar O‘rozov

Lingvokriminalistik tadqiqning metod va metodologiyasi xususida... 20

Nərmin Rəhimova

Əbdülhəmid Çolpanin həyat və yaradıcılığı 29

Sabohat Allanazarova, Dilrabo Elova

Sentiment tahlil uchun matndan valentlik, hissiyot va boshqa ta’sirchan
holatlarni aniqlash 38

O‘ZBEK TILINI XORIJIY TIL SIFATIDA O‘QITISH

Oqila Turakulova

Xorijiy davlatlarning o‘quvchilarida mutolaa madaniyatini rivojlantirish
tajribasi 48

Fotima Xamidullayeva

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda dialoglarning ahamiyati 58

Azoda Beysenova

“Soliqlar va soliqqa tortish” yo‘nalishi talabalariga o‘zbek tili darslarida
ichki ish hujjatlarini o‘rgatish 66

Nilufar Odiljonova

O‘zbek tilini xorijiy til sifatida o‘qitishda media ta’limdan
foydalanish 76

LINGVOKULTUROLOGIYA

Həsənova Ülkər

Azərbaycan xalqının təşəkkülü prosesi 83

LINGVOPOETIKA

Nasim Xo‘jayev

Tilshunoslikda badiiy matn tadqiqi 92

SOTSILOGIYA

Snegur Margarita, Xasan Akramov

Language in the national identity stucture 99

CHOG'ISHTIRMA TILSHUNOSLIK

Xurshida Kadirova

O'zbek tarjimashunosligi va chog'ishtirma tilshunosligida evfemizm va disfemizmlar talqini..... 109

KORPUS LINGVISTIKASI

Elyor Xonnazarov

Davomli hozirgi zamon grammatik shakllari annotatsiyasi.....126

AMALIY PSIXOLOGIYA

**Арай Аманова, Саодат Мухамедова, Эльмира Абдраимова,
Альфия Женисова**

Особенности взаимоотношения родителей и учащихся средней школы в инклюзивной среде..... 134

**Гульжанар Джумажанова, Илхом Аслонов, Оксана Беленко,
Гульнар Турсунгожинова**

Психологические условия формирования профессионального мышления студентов вуза..... 144

LINGVOPOETIKA

TILSHUNOLIKDA BADIY MATN TADQIQI

Nasim Xo'jayev¹

Abstrakt

Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligida badiiy nutq masalasining o'rganilish jarayoni yuzasidan fikr yuritiladi. Shuning bilan birga badiiy va ilmiy nutq qiyosiy tadqiq etiladi hamda badiiy adabiyotning san'atga qay darajada aloqadorlik jihatlari tahlil qilinadi. Badiiy matnda muallifning o'quvchi yoki kitobxonga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda tursa, nobadiiy matnda muallifning asosiy maqsadi o'quvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, nobadiiy matnda muayyan axborotning mazmuni va uning ifodasi birlamchi bo'lsa badiiy matnda bunday axborot birlamchi emas, balki shu matn asosida aytilmoqchi bo'lgan fikr – g'oyaning estetik ta'sirli ifodasi mutlaqo hal qiluvchidir. Matnning badiiy va nobadiiy tiplari bir-biridan ularda tilning estetik vazifasining salmog'iga ko'ra farqlanadi.

Kalit so'zlar: *badiiy matn, nobadiiy matn, badiiy nutq, ilmiy nutq, badiiy uslub, estetik ta'sir, san'at.*

KIRISH

Har bir matn o'zining ichki tuzilishiga ko'ra gap, murakkab sintaktik butunlik, xat boshi, paragraf, bob, bo'lim va qismdan iborat bo'ladi. Bu birliklar matnni (uning hajmiga qarab) vujudga keltirishda ishtirok etadi hamda uni shakllantirishda muhim omil sanaladi.

Har qanday matn ma'lum bir mazmunni tashiydi va o'z xususiyatidan kelib chiqqan holda turli xil axborotni ulashadi. Turli axborotni yetkazishiga ko'ra matnlar badiiy, publitsistik, ilmiy, rasmiy matn ko'rinishida bo'ladi.

Badiiy matnda muallifning o'quvchi yoki kitobxonga estetik ta'sir qilish maqsadi birinchi planda tursa, nobadiiy matnda muallifning asosiy maqsadi o'quvchi yoki kitobxonga kommunikativ ta'sir qilishdan iborat bo'ladi. Boshqacha qilib aytganda, nobadiiy

¹ Xo'jayev Nasim Sadullaevich - Shahrisabz davlat pedagogika instituti Ona tili va adabiyoti kafedrası o'qituvchisi

E-pochta: nasimxojayev8@gmail.com

ORCID: 0009-0006-7675-3203

Iqtibos uchun: Xo'jayev, N.S. 2024. "Tilshunoslikda badiiy matn tadqiqi". O'zbeki- ston: til va madaniyat. Amaliy filologiya masalalari. 2 (5): 92-98.

DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/MOWM6972

matnda muayyan axboratning mazmuni va uning ifodasi birlamchi bo'lsa badiiy matnda bunday axborot birlamchi emas, balki shu matn asosida aytilmoqchi bo'lgan fikr – g'oyaning estetik ta'sirli ifodasi mutlaqo hal qiluvchidir. Matnning badiiy va nobadiiy tiplari bir-biridan, ularda tilning estetik vazifasining salmog'iga ko'ra farqlanadi [Yo'ldoshev 2008, 88].

Demak, har qanday badiiy matn nobadiiy matndan, avvalo, estetik ta'sirchanlikka egaligi bilan ajralib turadi. Maqsad-mohiyatidan kelib chiqqan holda matnni estetik yoki kommunikativ vazifa yetakchilik qilishiga qarab ham ikkiga, ya'ni badiiy va nobadiiy matnlarga ajratishimiz mumkin. Asosiy maqsad mohiyatida estetik vazifa yetakchilik qiladigan matn badiiy matn hisoblanadi. Garchi barcha matnlar kommunikativ vazifa bajarsa-da, axborotni qay tarzda yetkazishiga qarab, til vositalarining qo'llanilishi ko'lamiga ko'ra o'zaro farqlanadi.

ASOSIY QISM

Badiiy adabiyot, ya'ni badiiy asarlar odamlarga juda kuchli ta'sir ko'rsata oladigan ilohiy bir kuchga ega deyiladi. U inson histuyg'ularini va uning ongini tarbiyalashda muhim o'rin tutadi. Kitobxon asar muallifi bilan birgalikda hamda asar qahramonlari bilan yonma-yon hayotning turli tomonlari, xarakterlar va hodisalar mohiyatiga kirib boradi va o'zida ularga bo'lgan munosabatni shakllantira boshlaydi. Natijada ushbu jarayon kitobxonni o'ylashga, fikrlashga va kechayotgan voqealarni tahlil qilishga undaydi.

Badiiy adabiyot bitmas-tuganmas g'oyalarning umumlashmasidir. U o'zida turli zamonlardagi kishilarning fikrlari, o'y-mulohazalari, orzu-umidlari, jamiyatdagi siyosiy, mafkuraviy, axloqiy-ta'limiy, falsafiy, diniy va boshqa xildagi qarashlarni mujassamlashtirgan. Yana shuni ta'kidlash joizki, badiiy adabiyot o'zi aks ettirgan g'oyalar bilan kishilar qalbiga, ruhiga kuchli ta'sir o'tkazib, ularda yangi-yangi qarashlar, fikrlar tug'ilishiga, ularning ma'naviy jihatdan boyishiga, ongining o'sishiga turtki beradi. Adabiyotda inson ruhiyati tasvirlanar ekan, uni shakllantiruvchi, yuzaga chiqaruvchi asosiy vosita jamiyat, ijtimoiy muhit ekanligini unutmaslik joiz.

Badiiy uslub unsurlari badiiy matn asosi hisoblanadi. O'zbek tilida badiiy uslub boshqa uslublarga qaraganda o'ziga xos o'rin tutadi. Bu uslub ayni paytda o'zining alohida me'yorlarga egaligi bilan ham ajralib turadi. Tilda mavjud bo'lgan materiallarni qamrab olish imkoniyatining yuksakligi, umumxalq tilida ishlatiladigan barcha lingvistik birliklarning, boshqa vazifaviy uslublarga xos bo'lgan elementlarning ham ishlatilaverishi va ularning barchasi muhim bir

vazifaga, ya'ni badiiy estetik vazifani bajarishga xizmat qilishi badiiy uslubning asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib xizmat qiladi.

Ma'lumki, badiiy asarlar ilmiy asarlardan o'z mazmun-mohiyati bilan farq qilishi bilan birga, ularni o'qishda ham katta farq mavjud bo'ladi. Badiiy asarni o'qishda talab qilinadigan emotsiya, mulohaza va tafakkur ilmiy asarni o'qishda talab qilinmaydi. Aksincha, ilmiy asarlarni mutolaa qilishda mulohaza, hukm, xulosa, qiyosiy tahlil va ilmiy qarash talab etiladi [Musulmanova 2021, 8].

Badiiy asar inson ongiga ma'naviy ozuqa berish omili sanaladi. O'qish davomida uning hissiyotlariga ta'sir qiladi – ba'zida zavqlantiradi, quvontiradi; ba'zan chuqur o'yga toldiradi, ba'zan qo'rquvga soladi, ba'zan kuldiradi, ba'zida esa yig'latadi. U shunday kuchki, kitobxonni turli kuyga sola oladi. Shu sababli badiiy asar o'qish uchun kishidan ortiqcha majburiyat talab qilinmaydi, qiziqishning o'zi kifoya. Buning aksi o'laroq ilmiy asarlarni mutolaa qilishda olima N.Musulmanova yuqorida e'tirof etganidek mulohaza, hukm, xulosa, qiyosiy tahlil va ilmiy qarash talab etiladi. Badiiy asarni to'xtovsiz soatlab, sutkalab (kichik pauzalar bilan, albatta) mutolaa qilish mumkin, bu jarayon kishiga zavq beradi, bunda charchoq sezilmaydi, aksincha, kitobxon madaniy dam oladi. Ammo ilmiy asar ustida bunday ishlab bo'lmaydi, chunki o'qish va izlanish davomidagi tahliliy jarayon, qiyosiy chog'ishtirmalar, turli hisob-kitoblar, aniqlangan yangi ma'lumotlarni o'zlashtirishga bo'lgan intilish, markaziy nerv sistemasiga ortiqcha bosimni oshiradi, asablarni toliqtiradi, natijada kitobxon tez-tez dam olishga, hordiq chiqarishga o'zida ehtiyoj sezadi.

A.I.Fedorov tilda estetik vazifa mavjudligini, ammo uning namoyon bo'lish darajasi matn tuzuvchining maqsadi bilan bog'liq holda farqli bo'lishini qayd etib, ilmiy va badiiy matnni quyidagicha taqqoslaydi: "Ilmiy va badiiy matndagi muallifning maqsadi bir-biridan tamoman farq qiladi. Ilmiy matnda muallifining asosiy e'tibori axborot berish, bildirish, tegishli qoidalarni ishlab chiqish va umumlashtirish, ilmiy yangiliklarni isbotlash, dalillash, muayyan qonuniyatlardan tinglovchi yoki o'quvchini xabardor qilishga qaratilsa, badiiy matnda ijodkorining maqsadi tinglovchi yoki o'quvchining his-tuyg'ulariga ta'sir qilish, uning ruhiy olamini zabt etishdan iborat bo'ladi. Shuning uchun ham ilmiy matnda fikrning mantiqiy, aniq, ikki xil talqinga yo'l bermaydigan ifodasi taqozo etilsa, badiiy matnda fikrning obrazli, ko'p ma'noli ifodasi birinchi planda turadi [Fedorov 1985, 11].

Aslida barcha yozma manbalarining katta qismi ilmiy bo'lib,

fan taraqqiyotining ma'lum bir yo'nalishiga xoslangan, ilmiy savodxonlikni oshirish va yaratuvchanlikka yo'naltirilgan. Fedorov A.I. ta'kilaganidek, bunday matn muallifining asosiy e'tibori moddiyat bilan bog'liq bo'lib, axborot berish, bildirish, tegishli qoidalarni ishlab chiqish va umumlashtirish, ilmiy yangiliklarni isbotlash, dalillash, muayyan qonuniyatlardan tinglovchi yoki o'quvchini xabardor qilishga qaratilgan. Faqat badiiy asarlarga bunday qarashdan mustasno, u moddiy hech narsa yaratishni maqsad qilmagan. U asosan ma'naviy ozuqa berish vositasi xolos. Shuning uchun ham ilm-fanning biror turiga emas, balki san'atning bir turiga mansub degan qarashlar mavjud. Badiiy adabiyot ijodkorning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati mahsulidir. Ammo-lekin, badiiy adabiyotni ta'riflashda biryoqlamalikka yo'l qo'yib bo'lmaydi, shuning uchun ham uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san'at hodisasi sifatida tushunish maqsadga muvofiq emas. Adabiyotning ijtimoiy ekanligini inkor qilish ma'qul bo'lmaganidek, uning individual-shaxsiy hodisa ekanligini ham inkor etib bo'lmaydi.

Badiiy adabiyot insonning go'zallik qonunlari asosidagi ijodiy-ruhiy faoliyati hisoblanadi. Shunday ekan, badiiy adabiyotni ta'riflashda biryoqlama yondashish, uni faqat ijtimoiy ong yoxud faqat san'at hodisasi sifatida qarash predmetning mohiyatini jo'nlashtiradi, bizni uning tabiatini anglashdan yiroqlashtiradi.

Metodlar tahlili

XX asr boshlarida xalqimizning buyuk shoiri Cho'lpon "Adabiyot nadir?" degan savolni o'rta tashlagan hamda shu nomli maqola yozib, ushbu savolga o'z davridan kelib chiqqan holda ilmiy va shaxsiy qarashlari asosida baholi qudrat javob berishga harakat qilgan.

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda "adabiyot san'atmi yoki ong sohasimi" degan masalaga e'tibor qaratsak. Sho'ro davrida o'ta yalang'och holatga keltirilgan, ijtimoiylashtirilgan adabiyot ommani mafkuraviy g'oyalarga bo'ysundirish, kommunistik ruhda tarbiyalash maqsadida nihoyatda mafkuralashtirilgan. Ana o'sha davrda amaliyotga aks ta'sir tarzida badiiy adabiyotni biryoqlamalilik asosida "sof san'at" sifatida tushunish, unda faqat san'at hodisasinigina ko'rish tamoyili ko'zga tashlanadi. Vaholanki, adabiyotda faqat vositani ko'rishlik qanchalik xato bo'lsa, unda faqat "sof san'at"ningina ko'rish ham shunchalik maqsadga muvofiq emasdir. Adabiyotni "sof san'at" sifatida ko'ruvchilar adabiyotning ijtimoiy ong sohasi ekanligini inkor qilishgan, yoki uning bu jihatiga bee'tibor qarab, ko'z yumishgan.

Rus olimi Timofeyev L.I. badiiy matnga mana shunday qisqa va lo'nda ta'rif beradi: "Badiiy matn borliqni va harakatlanuvchi, fikrlovchi, his qiluvchi insonni uni o'rab turgan muhiti bilan birga tasvirlaydi" [Timofeyev 1971, 33].

Shuning uchun ham badiiy adabiyotning bosh obyekti faqat inson degan qarashlar o'zini oqlamaydi. Aksincha, Timofeyev L.I. ta'kidlaganidek, adabiyot borliqni va harakatlanuvchi, fikrlovchi, his qiluvchi insonni uni o'rab turgan muhiti bilan birga tasvirlaydi. Bizning fikrimizcha ham shunday, adabiyotning bosh mezoni insonga qaratilgani bilan uni borliqdan ayro tasavvur etib ham, tasvirlab ham bo'lmaydi.

Adabiyotshunoslikka oid asarlarda, darsliklarda ham "badiiy adabiyotning bosh predmeti – inson" deb ko'rsatiladi. Biroq, mazkur fikrni tor ma'noda tushunish, uni mutlaqlashtirish unchalik to'g'ri emas. Chunki adabiyot insonni alohida (izolyatsiya qilingan holda) emas, balki jamiyat, tabiat (bir so'z bilan aytganda – borliq) bilan uzviy aloqada o'rganadi. Zero, insonning o'zini ulardan holi, izolyatsiya qilingan holda tasavvur etib bo'lmaydi, chunki inson tabiatan ijtimoiy hodisadir. Modomiki adabiyotning predmeti ham, uning yaratuvchisi ham inson ekan, adabiyotning ijtimoiy bo'lmasligi mumkin emas.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan fikrlarga tayangan holda shunday xulosa qilish mumkinki, badiiy adabiyotning inson hayotida ahamiyati juda yuqori. Inson ardoqlab keladigan eng noyob hislar insonparvarlik, adolat, shafqat, o'zaro hamjihatlik, do'stlik, mehr va muruvvat, sevgi-muhabat singari o'lmas insoniy tuyg'ular kishi ongida, shuurida, ruhiyatida mujassamlashadi va bu hislar adabiyotga oshno insonlar qalbiga ko'chib o'tadi. Tuyg'ular esa faqat aql orqali emas, balki ko'ngil, yurak orqali seziladi, ta'sir o'tkazadi. Shunday ekan, badiiy asarlar badiiy adabiyotning muhim ajralmas tarkibi bo'lib qoladi.

Adabiyotlar

- Musulmanova, N.R.* 2021. Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. – Toshkent: OOO "AKTIV PRINT". –B. 184.
- Musulmanova, N., Xo'jayev, N.* 2023. Tilshunoslikda genderolingvistikaning shakllanish jarayoni. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, № 5(1), B. 105-113. <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/55>
- Musulmanova, Nargiza.* 2024. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi, metodologiyasi va tadqiqot metodlari // O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, № 2(5): B.90-98

// <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/80>

Yo'ldoshev, M. Badiiy matn lingvopoetikasi -Toshkent, Fan, 2008. - B. 160.

Федоров, А.И. 1985. Образная речь. –Новосибирск: Наука, –С. 120.

Тимофеев, Л.И. 1971. Основы теории литературы. – М.: – С.464.

<http://fayllar.org/1-maruza-matn-lingvistikasi-fanining-maqsadi-vazifasi-obekti-v.html?page=50>

LITERARY TEXT RESEARCH IN LINGUISTICS

Nasim Khojaye¹

Abstract

This article discusses the process of studying the issue of artistic speech in Uzbek linguistics. At the same time, the artistic and scientific speech is comparatively studied and the aspects of relation of fiction to art are analyzed. In a literary text, the author's goal of aesthetic impact on the reader or reader is in the foreground, while in a non-fiction text, the main goal of the author is to have a communicative impact on the reader or reader. In other words, if the content of certain information and its expression is primary in a non-fiction text, such information is not primary in an artistic text, but the aesthetic expression of the thought - idea that is to be expressed on the basis of this text is absolutely decisive. Artistic and non-artistic types of text differ from each other according to the weight of the aesthetic function of the language.

Key words: *artistic text, non-fictional text, artistic speech, scientific speech, artistic style, aesthetic effect, art.*

References

Musulmanova, N.R. 2021. Ilmiy va ijodiy ish yozish asoslari. O'zga tilli guruhlarda o'zbek tili ta'limi yo'nalishi uchun o'quv qo'llanma. -Toshkent: OOO "AKTIV PRINT". –B. 184.

Musulmanova, N., Xo'jayev, N. 2023. Tilshunoslikda genderolingvistikaning shakllanish jarayoni. O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, № 5(1), B. 105-113. <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article/view/55>

Musulmanova, Nargiza. 2024. Badiiy matnning lingvopoetik tahlili: tarixi,

¹ Khojaye¹ Nasim Sadullayevich – teacher of the Department of native language and literature, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

E-mail: nasimkxujayev8@gmail.com

ORCID: 0009-0006-7675-3203

For citation: Khojaye¹, N.S. 2024. "Literary text research in linguistics". *Uzbeki- stan: language and culture. Issues of applied philology*. 2 (5): 92-98.

DOI:10.52773/tsuull.aphil.2024.2.5/MOWM6972

metodologiyasi va tadqiqot metodlari. // O'zbekiston: til va madaniyat. Amaliy filologiya. – Toshkent, № 2(5): B.90-98// <https://aphil.tsuull.uz/index.php/language-and-culture/article>

Yo'ldoshev, M. 2008. Badiiy matn lingvopoetikasi. Toshkent, Fan. B. 160.

Fedorov, A.I. 1985. Obraznaya rech. Novosibirsk: Nauka. S. 120.

Timofeev, L.I. 1971. Osnovi teorii literaturi. – M.: – S.464.

<http://fayllar.org/1-maruza-matn-lingvistikasi-fanining-maqsadi-vazifasi>

Jurnal 2017-yil 26-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Matbuot
va axborot agentligi tomonidan № 0936 raqam bilan ro'yxatdan o'tgan.
Tahririyatga kelgan maqolalar mualliflarga qaytarilmaydi.

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc)
dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalari chop etilishi lozim bo'lgan ro'yxatga
kiritilgan (30.10.2021. № 308/6).

Manzil: Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Yusuf Xos
Hojib ko'chasi 103-uy.
Telefonlar: +99871 281-45-11, +99871 281-41-93.
Website: www.uzlc.navoiy-uni.uz
E-mail: uzlangcult@gmail.com

Bosishga 29.03.2024-yilda ruxsat etildi.
Bichimi 70x100 1/16, Ofset bosma. "Cambria" garniturasida.
Nashr b.t. 10,375.

"O'zbekiston: til va madaniyat" jurnali tahririyatida
tayyorlandi va sahifalandi.
"YASHNOBOD NASHR" bosmaxonasida chop etildi.
Adadi 300 nusxa. Buyurtma №3.
Bosmaxona manzili: Toshkent shahar Yashnobod tumani,
58-a harbiy shaharcha.